

PEDAGOGIK ATAMALARNING TRANSTERMINOLOGIZATSIYASI

Yuldasheva Dilafruz Mahamadaliyevna. (0000-0001-7187-2330)

dilafruzyuldasheva12@gmail.com

. Farg'ona Davlat Universiteti Maktabgacha Ta'lim Kafedrasi dotsenti.

Xaydarova Charos Jaxongir qizi.

ch.haydarova@kokanduni.uz

Qo'qon Universiteti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada atamalarni standartlashtirish jarayoni, transterminologizatsiya jarayoni va ushbu jarayonlarning interlingvistik o'zaro ta'siri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: transterminologizatsiya, atamalar, atamalarni standartlashtirish, tilshunoslik va terminologiya, interlingvistik o'zaro ta'sir, pedagogik metodlar atamalari.

Kirish:

Bugungi globalizatsiya sharoitida terminologiyani muvofiqlashtirish masalasi fan va ta'lim sohalarida dolzarb bo'lib qolmoqda. Transterminologizatsiya jarayoni, ya'ni atamalarning o'zaro moslashtirish, ilm-fan, tilshunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Transterminologizatsiya tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, bu turli tillardagi atamalarni birlashtirish va standartlashtirish jarayoni, hamda, pedagogic terminlarni boshqa sohalardan o'zlashtirilishi yoki boshqa tillarga tarjima qilinishi deb atay olamiz. Bu tushunchani batafsil yoritadigan bo'lsak, bu jarayon, asosa, terminlarning globalizatsiya, texnologiyalar rivoji yoki fanlararo integratsiya natijasida shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, pedagogik atamalar kontekstida bir nechta shakllarda sodir bo'ladi. Pedagogik atamalarning o'ziga xosligi esa bu turdagi atamalar ta'lim tizimining asosiy tushunchalari va jarayonlarini ifodalovchi

ligvistik birlikligidadir. Shuningdek ularning lingvomadaniy jihatlari va milliy ta'lim tizimiga mosligidadir ham.

Transterminologizatsiyaning asosiy mexanizmlari:

1. Soha ichidagi transterminologizatsiya- bu bir xil sohada, lekin turli yo'nalishlarda qo'llaniladigan terminlarning shakllanishini ifodalaydi. Bunga misol tariqasida "Differensial yondashuv" (Differentiated Approach) tushunchasi dastlab psixologiyada qo'llanilgan bo'lib, keyinchalik ta'lim metodikasida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos yondashuvni anglatuvchi pedagogik atama sifatida shakllandi.

2. Fanlararo transterminologizatsiya- bu bir sohada qo'llaniladigan atamaning boshqa sohalarga o'tib, yangi ma'no va funksiyaga ega bo'lishidir. Misol uchun, "Model" tushunchasi, ilmiy-texnik sohada qo'llanilib, keyinchalik pedagogikada o'quv jarayonining ideal yoki namunali ko'rinishini ifodalay boshladi.

3. Til o'rtasidagi transterminologizatsiya- atama bir til tizimidan boshqasiga moslashtiriladi. Bu jarayonda terminning ma'nosi saqlanib qolishi yoki o'zgarishi mumkin. Misol: Ingliz tilidagi "mentoring" termini o'zbek tiliga "mentorlik" yoki "ustozlik" sifatida moslashtirilgan. Ushbu atama avvallari faqatgina menejmentda qo'llanilgan bo'lsa, hozirda pedagogik tizimda ham keng qo'llanilmoqda.

4. Madaniy moslashuv (akulturatsiya) – boshqa madaniyat yoki tilga moslashganda atamaning o'ziga xos o'zgartirilishlar kiritilishidir. Misol: "inclusive education" o'zbek tilida "inklyuziv ta'lim". Atama milliy ta'lim tizimida yangi atama bo'lsa-da, uning mazmuni xalqaro standartlarga asoslanadi.

Transterminologizatsiya jarayoni pedagogik atamalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. U nafaqat yangi terminlar yaratishni, balki turli tillar va madaniyatlar o'rtasida bilimlar almashinuvi jarayonini tezlashtiradi. Shu bilan birga, ushbu jarayonning muvaffaqiyati terminlarning to'g'ri tarjimasi, standartlashtirilishi va madaniy moslashuviga bog'liq.

Transterminologizatsiya jarayonida ma'lum bir qiyinchiliklar ham mavjud. Bular: lingvistik to'siqlar, madaniy va ma'naviy farqlar va standartlashtirish masalasi. Lingvistik to'siqlar bu atamalarni turli tillarga moslashtirishdagi kiyinchiliklardir. Madaniy va ma'naviy farqlar esa atamalarning turli madaniy kontekstlarda o'zgarishi xisoblanadi. Standartlashtirish masalasi bo'lsa xalqaro terminologik birliklarni yaratish zaruriyatini nazarda tutadi.

Pedagogik atamalarning transterminologizatsiyasi fanlararo va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayon nafaqat pedagogik atamalarni xalqaro darajada muvofiqlashtirishni, balki turli tillarda ta'lim sifatini oshirishni ham ta'minlaydi. Shu sababli, lingvistik va pedagogik tadqiqotlar doirasida ushbu mavzu yanada chuqurroq o'rganilishi zarur.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

- Abduazimov, S. (2019)** *"Tarjima va terminologiya: nazariya va amaliyot"*
- Asqarova, M. (2010)** *"O'zbek tilida terminlarning lisoniy va ijtimoiy jihatlar"*
- Cabré, M. T. (1999)** *"Terminology: Theory, Methods, and Applications"*
- Madvaliyeva, D. (2015)** *"Terminologiya asoslari va tarjima muammolari"*
- Picht, H., & Draskau, J. (1985)** *"Terminology: An Introduction"*
- Sager, J. C. (1990)** *"A Practical Course in Terminology Processing"*
- Temmerman, R. (2000)** *"Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach"*
- Yo'ldoshev, A. (2008)** *"Fan tilining leksik-semantik xususiyatlari"*